

## XITOY TILIDAGI “TO‘RT” RAQAMI BILAN BOG‘LIQ IBORALARNING SEMANTIK TAHLILI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14161455>

**Akimov Tair**

Xitoyschunoslik oliy maktabi PhD, dotsent  
akimov.t@mail.ru

### ANNOTATSIYA

*Xitoy tilidagi frazeologik birliklar xitoy xalqining jamiyat tarixiy taraqqiyotining madaniy merosidir. Unda madaniyatning o‘ziga xos har xil qirralari o‘z aksini topgan bo‘lib, insondagi his-tuyg‘ular, insonning o‘zaro har xil munosabatlari aks etgan bo‘ladi. Sonlar nafaqat hisob kitob qilishda qo‘llanilib qolmay, balki frazeologik birliklar tarkibida kelib boy mazmunlarni ham ifodalab keladi. Xitoy tilida “4” raqami ishtrok etgan iboralarning ijobiy va salbiy ma’no mazmunlarni ifodalishini urganishga harakat qilindi.*

**Kalit so‘zlar:** Frazeologik birliklar, tarix, jamiyat, madaniyat, urf-odatlar, milliy an'analar, dunyoqarash, metafora, semantika.

### СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗОВ, СВЯЗАННЫХ С ЧИСЛОМ «ЧЕТЫРЕ» В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

### АННОТАЦИЯ

Фразеологизмы в китайском языке являются культурным наследием исторического развития китайского народа. В них отражаются разные стороны культуры, человеческие чувства и различные отношения между людьми. Числа не только используются в исчислениях, но и выражают богатое содержание во фразеологических единицах. В данной статье изучены положительные и отрицательные значения выражений с числом «4» на китайском языке.

**Ключевые слова:** Фразеологизмы, история, общество, культура, традиции, национальные традиции, мировоззрение, метафора, семантика.

### ANALYSIS OF THE EXPRESSIONS RELATED TO THE NUMBER “FOUR” IN CHINESE

### ABSTRACT

*Phraseological expressions in the Chinese language serve as a vital component of the nation's cultural heritage, encapsulating the historical evolution of Chinese*

society. These expressions not only convey human emotions and interpersonal relationships but also embody various dimensions of Chinese culture. Numbers, while primarily associated with mathematical calculations, carry deep symbolic meanings within these phraseological units. This article studies the semantic duality—both positive and negative—associated with the number "4" in Chinese phraseology, highlighting its cultural and metaphorical significance.

**Keywords:** Phraseological units, cultural heritage, societal development, Chinese traditions, national identity, worldview, metaphorical language, semantics.

Insonlar o‘zaro muloqot qilganda gapiroqotgan so‘zining ta’sir kuchini oshirish uchun u yoki bu darajada iboralarga murojat qiladi. Tilshunos olimlar iboralarning kelib chiqish tarixini urganishga intilib kelmoqda. Iboralar har bir xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga katta yordam beradi. Iboralarni urganish o‘sha xalqning urf-odatlarini, udumlarini, madanyatini urganishimizga imkon beradi. Ta’sirchan ifodalash asosiy o‘rin tutgani uchun iboralarda obrazlilik, majoziylik kuchli bo‘ladi, qofiya, badiiy tasvir vositalaridan keng foydalilanadi, o‘tkir kinoya qo‘llaniladi. Natijada u mantiqiy tugal ma’noli hikmatli iboraga, chuqur mazmunli pand-nasihat xarakteridagi gapga aylanadi. O‘ziga xos sodda va ixcham badiiy shakl, ritm va ohangga egadir. Xoh og‘zaki so‘zlashuv nutqda bo‘lsin, xoh yozma nutqda bo‘lsin biz undan ayrila olmaymiz. O‘z joyida, o‘z paytida mohirona qo‘llanilgan iboralar tilimizga ajoyib sehirli kuch bag‘ishlab, tilning ifodalash kuchi va badiyligini oshiradi. Dunyodagi barcha tillarda sonlar bilan keladigan frazeologik iboralar ko‘p uchraydi.

Maqolada xitoy tilidagi “4” raqami bilan bog‘liq iboralarning ijobiylari va salbiy ma‘nolarni anglatilishini va ularning semantikasini tahlil qilishga harakat qilindi. Xitoy tilida sonlar bilan shakllangan iboralar juda ko‘p uchraydi va muloqatda keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Ba’zi bir iboralarda sonlar baxtli, ba’zilarida esa baxtsiz sonlar hisoblanishi mumkin. Xitoy aqidalariga ko‘ra har bir sonning o‘z ma’nosi, ta’siri va kuchi mavjud.

Xitoy tilida 0.5, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 100, 1000, 10000, 100 000 000 sonlar bilan keladigan iboralar juda ko‘p. Xitoy tilidagi iboralarning 10% ni raqamlar bilan bog‘liq iboralar tashkil etadi. Shulardan “bir” raqami bilan keladigan iboralar taxminan 5% ni tashkil qiladi. Biz bu maqolada to‘rt soni ishtirot etgan iboralarni ko‘rib chiqamiz.

Daosizmda 4 soni butun borliqni qamrab olib predmetning shaklini aniqlab uni har tomonlama ko‘rsatib beradi: 4 ta unsur – Osmon, Yer, Quyosh, Oy; 4 ta fasl; dunyoning 4 tomoni ko‘rsatadi. Bashoratlarda 4 soni amaldorlar va ofitserlar, jamiyatda ma’lum bir darajaga erishganlar, muvaffaqiyat va o‘sish ma’nolarini

bildirgan. 4 soni “Ochiq eshik”, dunyoga chiqish, iliqlik va ochiqlik, yangi imkoniyatlar mazmunini bergan. Bu barqarorlik, yorqinlik, barcha ro‘y beruvchi hodisalarga faol ta’sir qiladi deb hisoblangan.<sup>1</sup>

Klassik xitoy numerologiyasida 4 soni barqarorlik, ratsionallik va muvozanat ma’nolarini bildiradi. Xitoy xalqi doim irim-sirimlarga ishonuvchanligi va afsona hamda urf-odatlarga jiddiy munosabati bilan tanilgan. Bu ayniqsa qadimgi davrdan hurmat qilinadigan va biroz hayiqishadigan sonlar sehri bilan bog‘liq. Chunki ular bilan inson hayotini boshqarish mumkin deb hisoblashadi. 4 soni Xitoyda eng qo‘rinchli, baxtsizlik deb hisoblanadi. Sabab 四 sì to’rt, 死 sǐ o’lim talaffuzi deyarli bir xil bo‘lgani uchun to’rt raqamini xitoyliklar yomon ko‘rishadi. Xitoyliklarning bunday munosabati sabab hatto terafobiya, ya’ni 4 sonidan qo‘rqish ijtimoiy termini paydo bo‘lgan. Lekin hozirgi kunda bunday irim-sirimlarga e’tibor berish kamaygan.

To’rt raqami iboralarda ijobiy ma’nolarni ham bildiradi, to’rt sonining o‘zi juft son bo‘lgani uchun baxt, boyib ketish kabi mazmunlarni anglatadi. An’anaviy Xitoy madaniyatida 4 raqami to’rt faslning o‘zgarishini va sharq, janub, g‘arb, shimolning to’rt yo‘nalishini anglatadi. Kuchli, donolik,adolat va qudratlilik kabi ma’nolarni ham bildiradi.

Xitoy, Yaponiya va Koreyada to’rtinchı qavatdan ofis, uy olmaslikka harakat qilishadi, to’rtinchı qavat boshqa qavatlarga nisbatan arzon turadi. Mashina raqami, samolyot raqami, telefon raqamida to’rt soni bo‘lsa baxtsiz, yaxshilik olib kelmaydigan raqam deb bilishadi, hatto to’rt raqamli shifoxonalar ham yo‘q, liftlarda ham to’rt raqami yozilmaydi. To’rt sonining o‘rniga “F” yoziladi.

Yaponlarda to’rt soni “shi”, Koreylarda “sa” o’lim so‘zi talaffuziga yaqin bo‘lganligi uchun ular ham yoqtirishmaydi.

Yapon tilida 49 soni og‘zaki nutq talaffuzida yoqimsiz, ma’nosи juda qo‘rinchli bo‘lgan “o‘lguningcha kasal bo‘l” iborasining talaffuziga yaqin bo‘lgani uchun yaponlar bu sonni juda ham yomon ko‘rishar ekan.

Ba’zi bir afsonalarda 48 soni “o’lim puli” deb ham tasvirlangan joylari bor.

O‘lmoq bilan to’rt sonining talaffuzi deyarli bir xil bo‘lganligi uchun to’rt soni baxtsiz son, yaxshilik olib kelmaydigan son deb qaraladi. Xitoy rivoyatlarida to’rt sonini iblislar bilan bog‘lashadi. Xitoyliklar ikki sonini ham yoqtirishmaydi. Xitoy afsonalarida ikki soni “janjal, ixtilof, nizo, mojaro” kabi ma’nolarga bog‘lashadi.

Xitoy tilida 14 - o‘lishni xohlamoq, 24 – oson o‘lish, 74 – aniq o‘ladi, 94 – abadiy o’lim degan ma’nolarni anglatadi.

<sup>1</sup> <http://sacralis.com/filosofskie-techeniya/taoism/1125-daosskaya-numerologiya.html>

SACRALIS “Философские течения”, Даосизм, Даосская нумерология

Xitoyliklar to‘rt sonini omadsizlik olib keladigan son deb bilishgani uchun 2004 yili bo‘lib o‘tgan olimpiyada o‘yinlariga xitoylik sportchilar qatnashmagan, sababi 2004 ning ichida to‘rt soni bo‘lganligi uchun.<sup>2</sup>

8 soni esa aksincha, xitoyliklar bu sonni juda ham yoqtirishadi. Ular 8 soni boylik, baxt olib keladi deb hisoblab, iloji boricha 8 sonli narsalarni olishga harakat qilishadi.

Xitoyliklarning do‘konlariga kirsangiz narsalarning narxi 6.8, 7.8, 38, 58, 80, 88, 888 yuan deb yozib qo‘yishadi, sotuvchi ham, oluvchi ham xursand bo‘lib savdo qilishadi. Ishbilarmonlar ishlari o‘ngdan kelishi, omadli bo‘lishi uchun shartnomalarni 8 sana kuni tuzishga harakat qilishadi va 8 bā raqami bor reyslardagi samolyotlarda uchishni ma’qul ko‘rishadi

Pekinda o‘tkazilgan yozgi olimpiada o‘yinlari ham 2008 yili 8 avgust kuni kech soat 8 dan 8 minut o‘tganda boshlangan. Hamda xitoylik sportchilar ko‘plab medallarni qo‘lga kiritishgan va olimpiada o‘yinlarini o‘tkazish natijasida Xitoy 150 million dollarga yaqin daromad olgan. Shu sanada ko‘pgina yoshlardan turmush qurishni ma’qul ko‘rishadi. 8 avgustda farzandli bo‘lish ular uchun bayramdir.<sup>3</sup>

Xitoyliklar oldinlari eski urf-odatlarida 4 raqami o‘lim, baxtsizlik ma’nolarida qo‘llanilsa ham, iboralar tarkibida keluvchi 4 raqami faqat salbiy ma‘nolarni anglatib qolmay ijobjiy ma‘nolarni ham anglatib keladi.

G‘arbda, Rossiyada ba’zi insonlar “13” raqamidan qo‘rqishadi va bu kuni safarga chiqmoslikka harakat qilisharkan. Dunyoning barcha xalqlarida turli sabablar bilan har xil irimlar shakllangan. Kishilar irimga ko‘ra ba’zibir hodisalarni omadli deyishsa, ba’zilari omadsiz deyishadi. Ba’zi hayvonlarni, hattoki begunoh raqamlarni omadsizlik olib keluvchi, bexosiyat omil sanaydilar. Uchoqlarning aksaryatida 13-o‘rindiklari bo‘lmasligi kuzatilgan bo‘lib, ko‘p yo‘lovchilar 13-qatorda o‘tirishni ortiqcha hayajonlanishga olib kelishini aytishgan ekan.

Shu o‘rinda bosh vazirimiz Abdulla Aripovning so‘zlagan nutqini keltirib o‘tmoxchiman. “13 raqami ko‘pchilikka yoqmas, lekin O‘zbekistonga juda yoqiyapdi. 13- avgust kuni O‘zbekiston bayrog‘ini paralimpiyachilarimizga topshirib, Parijdagi bahslarda omad tilagandik. Parasportchilarimiz 189ta davlat vakillari Ichida 13-o‘rinni egallab, yorug‘ yuz bilan yurtimizga qaytdi”<sup>4</sup>.

Bizning xalqimiz bunday irim-sirimlardan uzoqroq bo‘lib, begunoh 4 va 13 raqamlariga ishonishmaydi .

Xitoy tilidagi “4” raqami bilan bog‘liq iboralarni quyidagi misollar bilan tahlil qilib chiqishga harakat qilindi.

<sup>2</sup> <http://jj-tours.ru/adds/blog4/2016-01-04-four-in-china.html>

<sup>3</sup> <https://pismoref.ru/scastlivye-cifry-v-kitae-2/>

<sup>4</sup> <https://qalampir.uz/news>

不三不四 bù sān bú sì – So’zma-so’z tarjimasi: *na uch, na to’rt (na uyoqlik-na buyoqlik; pala-partish; na samon-na don).*

Qadimda “uch” odatda yaxlitlik yoki mukammallikni anglatadi, “to’rt” esa puxtalik va qoniqishni anglatadi. Bu ibora puxta ham emas, mukammal ham emas ma’nosini bildiradi.

他做事总是不三不四，给人一种不靠谱的感觉 *U har doim ishlarni pala partish qiladi, odamlarga ishonchsizlik hissini beradi.*

四海之内皆兄弟 sì hǎi zhī nèi jiē xiōng dì – *Butun yer yuzi odamlari og‘a-inidurlar.<sup>5</sup>*

四面楚歌 sì miàn chǔ gē – *Mushkul ahvolda qolmoq; ikki oyog‘i bir etikka tiqilmoq; har tomonlama bosim qilmoq.*

“Ikki oyog‘i bir etikka tiqilmoq”yomon vaziyatga tushib qolganlarning taqdiri ko‘pincha juda ayanchli bo‘ladi. Tarixdagi har bir ahmoq podshoh oxir-oqibat ag‘darildi, degan ta’limotni insonlar yodda tutishlari kerak. Inson atrofidagi odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lmasa, u xalqning qadriga yetmaydi. Hammaga samimiyl munosabatda bo‘lganda va boshqalarni hurmat qilganda qiyinchiliklarga duchor bo‘lsangiz ham, atrofingizda sizni qo‘llab-quvvatlaydigan va yordam beradigan ko‘p odamlar bo‘ladi va siz yolg‘iz va nochor holatda qolmaysiz degan fikr yurtiladi.

家徒四壁 jiā tú sì bì – uyda faqat to‘rt devor bor; kambag‘al<sup>6</sup>.

表哥家穷到家徒四壁，他只好半工半读！ *Amakivachchamning oilasi shunchalik kambag‘al ediki, yarim kun ishlab, yarim kun o‘qishdan boshqa chorasi yo‘q edi!*

狼烟四起 láng yān sìqǐ– uzliksiz urush; tartibsizlik

听到外面狼烟四起，他的心慌了起来 *Tartibsiz urushlarni eshtib, u beorom bo‘ldi.*

目空四海 mù kōng sì hǎi – *dunyoqarashi keng*

他去过很多国家，眼空四海，见多识广 *U juda ko‘p davlatlarni kezib, ko‘pni ko‘rgani uchun dunyoqarashi kengdir.*

朝三暮四 zhāo sān mù sì – so‘zmi-so‘z tarjimasi: *ertalab uch, kechda to‘rt (xameleon; o‘zgaruvchan)*

<sup>5</sup>Ochilov.O, 李雅梅 乌汉-汉乌熟语词条对照辑录 O‘zbekcha-xitoycha, xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati. Pekin, 2011. 222-bet.

<sup>6</sup>T.Akimov, A.Mirkomilova 中乌数字成语词典 Xitoycha-o‘zbekcha sonlar bilan bog‘liq iboralar 283-bet

你一会儿学这个，一会儿学那个，朝三暮四，这样学是不会有进步的 *Sen bir buni, bir uni urganib, o'zgarib tursang, muvaffaqiyatga erisha olmaysan.*

头脑简单，四肢发达 *tóu nǎo jiǎndān, sì zhī fādá – beg 'am*

他是那种典型的头脑简单，四肢发达的人 *U beg 'am odam edi.*

名扬四海 *míng yáng sì hǎi – mashhur bo 'lmoq*

这年轻人几乎是一夜间名扬四海的 *Bu yoshlar deyarli bir kechada mashhur bo 'lib ketishdi.*

马靠四蹄，人靠双 *mǎ kèào sì tí, rén kèào shuāng – Ot to 'rt oyog 'iga, odam ikki qo 'liga suyanar.*

吃四方饭 *chī sì fāng fàn<sup>7</sup> – qayerga borsa bir parcha nonini topib yemoq (ma'nosi oldinlari rohiblar qayerga borsa qorinlarini to'ydirishgan, bu ibora oddiy odamlar qayerga bormasin bir burda nonini topib yeyishadi, och qolmaydi ma'nosida qo'llaniladi. Bir kishi qayerga borsa kuni o'tadi).*

四海他人 *sì hǎi tā rén – So'zma-so'z tarjimasi: Ular dengizning to 'rt tomonida (qarindoshlik aloqasi yo 'q odamlarga nisbatan qo 'llaniladi).*

四海一家 *sì hǎi yī jiā – bormagan joyi qolmagan odam (dunyo ko 'rgan odam) degan ma 'noda.*

他长年旅居世界各地，可以说是四海为家 *tā cháng nián lǚ jū shì jiè gè dì, kě yǐ shuō shì sì hǎi wéi jiā – U ko 'p yillar dunyoning har xil yerlarida yashagan, uni dunyo ko 'rgan odam desa bo 'ladi.*

四角俱全 *sì jiǎo jù quán – so'zma-so'z tarjimasi: To 'rt burchagi butun (nuqsonisz).*

四方步儿 *sì fāng bù ér – Og 'ir bosiq odam; o'zini bosib olgan odam; xotirjam.*

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir millatning tarixiy va madaniyati iborilarida yorqin aks etkandir. Maqolada xitoy tilida «4» soni bilan bog'liq frazeologik birliklarni o'rganish, xitoyliklarning urf-odatlari, madaniyati va so'zlashuvda keng ishlatiladigan iboralarning kelib chiqish tarixini, hikoya va afsonalarini bilish juda zarurligiga amin bo'ldim. Xitoy tilidagi iboralarda Xitoy davlatining tarixiy rivojlanish bosqichlari yoki milliy madaniyat ildizlarini to'liq namoyon etishda, xitoy millatining ko'z qarashlari, fikrlashi, tafakkur uslublari izlarini topish mumkin. To'rt raqami salbiy ma'nolarni anglatishdan tashqari ijobjiy ma'nolarni ham anglatsada, ko'proq salbiy ma'nolarni anglatilishi aniqlandi.

<sup>7</sup> 汉语成语大全. 北京 2017 年 245 页

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Ochilov.O, 李雅梅 乌汉-汉乌熟语词条对照辑录 O‘zbekcha-xitoycha, xitoycha-o‘zbekcha maqol, matal va iboralar lug‘ati. Pekin, 2011. 222-bet.
2. T.Akimov, A.Mirkomilova 中乌数字成语词典 Xitoycha-o'zbekcha sonlar bilan bog'liq iboralar 283-bet
3. 汉语成语大全. 北京 2017 年 245 页
4. <http://sacralis.com/filosofskie-techeniya/taoism/1125-daosskaya-numerologiya.html> SACRALIS “Философские течения”, Даосизм, Даосская numerologiya.html
5. <http://jj-tours.ru/adds/blog4/2016-01-04-four-in-china.html>
6. <https://pismoref.ru/scastlivye-cifry-v-kitae-2/>
7. <https://qalampir.uz/news>

### Илова:

1	再三再四	<i>zài sān zài sì</i>	<i>takror-takror; tayta-qayta</i>
2	四不象	<i>sì bù xiàng</i>	<i>o‘xshamagan; g‘alata</i>
3	四分五裂	<i>sì fēn wǔ liè</i>	<i>parcha-parcha bo‘lib ketmoq</i>
4	四面楚歌	<i>sì mià nchū gē</i>	<i>mushkul ahvolda qolmoq</i>
5	四面受敌	<i>sì miàn shòu dí</i>	<i>taraf-tarafdan zarba yemoq</i>
6	丑声四溢	<i>chǒu shēn gsì yì</i>	<i>yomon xabar tez tarqaladi</i>
7	楚歌四合	<i>chǔ gē sì hé</i>	<i>ikki oyog‘i bir etikka tiqilmoq</i>
8	楚歌四面	<i>chǔ gē sì miàn</i>	<i>ikki oyog‘i bir etikka tiqilmoq</i>
9	凑四合六	<i>còu sì hé liù</i>	<i>ajoyib yaxshi; ajoyib mos kelmoq</i>
10	倒四颠三	<i>dǎo sì diān sān</i>	<i>tog‘dan-bog‘dan gapirmoq</i>
11	家徒四壁	<i>jiā tú sì bì</i>	<i>kambag‘al</i>
12	名扬四海	<i>míng yáng sì hǎi</i>	<i>mashhur bo‘lib ketmoq</i>
13	目空四海	<i>mù kōng sì hǎi</i>	<i>dunyoqarashi keng</i>
14	四大皆空	<i>sì dà ji ēkōng</i>	<i>o‘zingda yoq olamda yo‘q</i>
15	四海九州	<i>sì hǎi jiǔ zhōu</i>	<i>xitoy</i>
16	四邻八舍	<i>sì lín bā shè</i>	<i>qo‘shnilar</i>
17	四面八方	<i>sì miàn bā fāng</i>	<i>har tomonlima</i>
18	四清六活	<i>sì qīn gliù huó</i>	<i>aqilli va qobiliyatli</i>
19	四体不勤, 五	<i>sì tǐ bù qín, wǔ gǔ bù fēn</i>	<i>dangasa;</i>

	谷不分		<i>qo 'lidan ish kelmaydigan</i>
20	凿四方眼儿	<i>záo sì fāng yǎn ér</i>	<i>o 'jar</i>
21	四平八稳	<i>sì píng bā wěn</i>	<i>barqarorlik</i>
22	五湖四海	<i>wǔ hú sì hǎi</i>	<i>har xil joylar</i>
23	眼观四处，耳听八方	<i>yǎn guān sì chù, ēr tīng bā fāng</i>	<i>zihni o 'kir va hushyor</i>
24	丢三落四	<i>diū sān là sì</i>	<i>esi past</i>
25	丢三落四，丢头落尾	<i>diū sān là sì, diū tóu là wěi</i>	<i>bir u narsani, bir bu narsani esidan chiqarib qo 'ymoq</i>
26	丢三忘四	<i>diū tóu luò wěi</i>	<i>esi past</i>
27	倒三颠四	<i>dǎo sān diān sì</i>	<i>ishi teskari bo 'lmoq</i>
28	三病四痛	<i>sān bìng sì tòng</i>	<i>bir joyi og 'irsa hamma joyi og 'irmoq</i>
29	三求四告	<i>sān qiú sì gào</i>	<i>yana talab qilmoq</i>
30	三清四百	<i>sān qīng sì bǎi</i>	<i>juda aniq</i>

□